BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING QARORI

201200, Peshku tumani, Amir Temur ko‘chasi, 3-uy. Tel: (65) 35-31- 6-31, faks: (65) 35-31-570, peshku.t@exat.uz

2023 - yil 25 - oktabr 353-2-39-Q/23 Peshku tuman hokimligi

Peshku tumanida 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38, 39-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 11.12.2017 y, 09/17/965/0393-son) Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Peshku tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 27-sentabrdagi 01-397-sonli ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o‘rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 184 kishini tashkil etadigan 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 41,8 foiz (77 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar ta’limi

maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun 46,2 foiz (85 kishi);

“Mehribonlik uyi"larining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1,0 foiz (3 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlarining muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 1,1 foiz (2 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,2 foiz (6 kishi);

pensiyaoldi yoshdagi shaxslar uchun 2,7 foiz (5 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 1.1 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1,6 foiz (3 kishi);

ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun 0,5 foiz (1 kishi) etib belgilansin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qarorning uchinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

7. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Sirojov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Peshku ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **V.Qahhorov**

Peshku tuman hokimining
2023-yil 25-oktabrdagi
353-2-39-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yilda Peshku tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida MA'LUMOT

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Ishlovchilar soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	шу жумладан:										
				O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogiron bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarining ota-onalari uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga zga bo‘lgan yoshlar uchun	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlarvazirligining, Favqulotda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun	ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun		
1	"Zuxal hunar zar" mas’uliyati cheklangan jamiyati	58	4	2	0	0	0	0	**0**	**0**	**1**	1		
2	"Peshkutekstil ko‘rki" oilaviy korxonasi	46	3	3	0	0	0	0	0	**0**	**0**	**0**		
3	Paxta tozalash zavodi h/j	322	18	3	6	0	2	3	3	0	1	0		
4	"SHuxrat malik" f/x	49	2	1	0	0	0	0	0	0	1	0		
5	"Malshuyak" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
6	"Aliyor nurli zamini" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
7	"Sayfi Farrux" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
8	"Askar Alisher Asliddin" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
9	"Rajab Ibod Orif" f/x	29	2	1	0	0	0	0	1	0	0	0		
10	"Ozod diyor 2018" f/x	29	2	1	0	0	0	0	1	0	0	0		
11	"Zulfiya To'ra qizi" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
12	"Muhammad Akbar Ali" f/x	23	1	0	0	0	0	1	0	0	0	0		
13	"Amon ota zamini" f/x	29	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0		
14	Peshku TYXPTФK x/j	99	4	2	1	0	0	0	0	1	0	0		
15	Tibbiyot birlashmasi	850	31	6	23	0	0	2	0	0	0	0		

16	Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	105	4	2	2	0	0	0	0	0	0	0		
17	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	71	4	1	3	0	0	0	0	0	0	0		
18	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	5	2	3	0	0	0	0	0	0	0		
19	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	4	2	2	0	0	0	0	0	0	0		
20	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	91	5	2	2	1	0	0	0	0	0	0		
21	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	4	1	2	1	0	0	0	0	0	0		
22	12-umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	5	2	3	0	0	0	0	0	0	0		
23	30-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	5	2	3	0	0	0	0	0	0	0		
24	33-umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	4	1	2	1	0	0	0	0	0	0		
25	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	5	3	2	0	0	0	0	0	0	0		
26	18-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	5	1	4	0	0	0	0	0	0	0		
27	14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	6	4	2	0	0	0	0	0	0	0		
28	21-umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	3	1	2	0	0	0	0	0	0	0		
29	23- umumiy o'rta ta'lim maktabi	77	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0		
30	28- umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	6	2	4	0	0	0	0	0	0	0		
31	Peshku tuman 1-son kasb-hunar maktabi	76	5	2	3	0	0	0	0	0	0	0		
32	Peshku tuman 2-son kasb-hunar maktabi	58	4	2	2	0	0	0	0	0	0	0		
33	13-son bolalar va o'smirlar musiqa maktabi	44	3	0	3	0	0	0	0	0	0	0		
34	32- umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	4	1	3	0	0	0	0	0	0	0		
35	34- umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	3	2	1	0	0	0	0	0	0	0		
36	35- umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	3	1	2	0	0	0	0	0	0	0		
37	46- umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	4	2	2	0	0	0	0	0	0	0		
38	19-sonMTT	22	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0		
39	43 -son MTT	33	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0		
40	36 -son MTT	21	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0		

41	Obodonlashtirish boshqarmasi	219	10	8	1	0	0	0	0	1	0	0		
	JAMI	**3501**	**184**	**77**	**85**	**3**	**2**	**6**	**5**	**2**	**3**	**1**		